

Мезофилл у всех видов изолатерально-палисадный, со средним (2,3) индексом палисадности. В углах семянолей расположены группы клеток колленхимы, наиболее толстостенные у *A.minus* и *A.latifolium*. Семяноли являются первыми листовыми органами и сохраняют древние акцестральные признаки, отражающие эволюцию таксона, поэтому перечисленные признаки ксероморфности свидетельствуют о возникновении рода *Agriophyllum* в аридном климате.

Почечка зародыша имеет сформированные 4 листовых примордия, что также является прогрессивным признаком. Диагностическим признаком *A.minus* являются сосочки на эпидермисе.

Гелиоморфными (или ксероморфными) признаками являются: редукция пластинки (вальковатые семяноли), опушение из разных типов трихом, однорядная эпидерма с прямыми стенками клеток, дорзивентральность и изолатерально-палисадность,

склерификация проводящих пучков, наличие железистых трихом, млечников, схизогенных вместилищ.

Мезоморфные признаки: многочисленные непогруженные устьица, изогубчатые тип мезофилла, крупные межклетники, многочисленные несклерифицированные проводящие пучки.

В семянолях видов однолетников эти признаки встречаются в разных сочетаниях. Дорзивентральность сочетается с пластинчатой формой семянолей, тогда как губчатый мезофилл – с вальковатостью, склерификацией и малочисленностью проводящих пучков. Опушение коррелирует с тонкими стенками клеток эпидермы, тогда как утолщенные наружные стенки эпидермальных клеток отмечены у голых семянолей. В семянолях прослеживаются корреляции признаков, позволяющие сохранять анцестральные мезоморфные структуры и формировать адаптивные ксероморфные и галоморфные признаки.

Литература

1. Бутник А.А. Структурные типы семянолей маревых. В кн. «Морфо-биологические особенности дикорастущих растений Узбекистана». –Ташкент: «Фан» УзССР, 1974. –С. 4-18.
2. Дорофеев В. Ф. О значений семянолей у некоторых представителей рода. Докл. ТСХА в ХХХVI. 1958. –С.326-331.
3. Турсинбаева Г.С., Бутник А.А. Анатомическое строение семянолей некоторых видов эфемеров// Актуальные проблемы экологии растений. Материалы республиканской научной конференции. Посвященной 50-летию лаборатории анатомии и цитологии. –Ташкент: 2012.
4. Турсинбаева Г.С. Морфо-анатомическое строение семянолей некоторых видов представителей сем. Asteraceae Bercht JPresl, произрастающих в условиях Кызылкума// Хоразм Маъмур Академияси ахборотномаси. –Хива: 2019.
5. Турсинбаева Г.С., Сапаров А. Морфологическая структура и семянолей и листа сем. Apiaceae L.// Сборник материалов IV-международный научно теоритической конференции “АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК” . Нукус 13 мая 2023 год.
6. Турсинбаева Г.С., Эгамбердиева Л.Н. Строение листа видов семейства Brassicaceae burnett в Юго-Западном Кызылкуме //Современная биология и генетика (Международный научный журнал) 2023 №4 (6).
7. Турсинбаева Г.С., Ким В.В., Эгамбердиева Л.Н. Эколого-биологическое описание семейства Asteraceae Dumort в условиях Кызылкума// Научный вестник Наманганского государственного университета № 12 2023 г.

РЕЗЮМЕ. Бир йилликларнинг уруғпаллариди бу белгилар турли комбинацияларда учрайди. Дорзивентраллик уруғпалларнинг пластинкасимон шакли билан, говаксимон мезофилл эса вальковатлик, склерификация ва ўтказувчи боғламларнинг камлиги билан бирга кечади. Тукланиш эпидерма хужайраларининг юпка деворлари билан боғлиқ, шу билан бирга эпидерма хужайраларининг калинлашган ташки деворлари яланғоч уруғпалларда кайд этилган. Уруғ бўлаклариди антрал мезоморф тузилмаларни сақлаб қолиш ва мослашувчан ксероморф ва галоморф белгиларни шакллантириш имконини берувчи белгиларнинг корреляцияси кузатилади.

РЕЗЮМЕ. В семянолях видов однолетников эти признаки встречаются в разных сочетаниях. Дорзивентральность сочетается с пластинчатой формой семянолей, тогда как губчатый мезофилл – с вальковатостью, склерификацией и малочисленностью проводящих пучков. Опушение коррелирует с тонкими стенками клеток эпидермы, тогда как утолщенные наружные стенки эпидермальных клеток отмечены у голых семянолей. В семянолях прослеживаются корреляции признаков, позволяющие сохранять анцестральные мезоморфные структуры и формировать адаптивные ксероморфные и галоморфные признаки.

SUMMARY. In the semioids of the annual species, these traits are found in various combinations. Dorsiventral is accompanied by a lamellar shape of the seminiferous part, while spongy mesophyll is accompanied by a valloous shape, scleriosis, and a small number of conducting bundles. Hair removal correlates with the thin walls of epidermal cells, while thickening of the outer walls of epidermal cells is observed in naked spermatophyte part. In the semiotic part, there is a correlation of signs that allow for the preservation of ancestral mesomorphic structures and the formation of adaptive xeromorphic and halomorphous features.

OROLBO‘YI O‘TLOQI-ALLYUVIAL TUPROQLARNING MIKROORGANIZMLAR TARQALISHINING YIL MAVSUMLARI HAMDA SHO‘RLANISH DARAJALARIGA KO‘RA O‘ZGARISH DINAMIKASI

G.M.Shamuratova – qishloq-xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘ davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: Orolbo‘yi o‘tloqi-allyuvial tuproqlari, mikroorganizmlar, ammonifikatorlar, fosfor parchalovchi, oligonitrofillar.

Ключевые слова: лугово-аллювиальные почвы Приаралья, микроорганизмы, аммонификаторы, фосфорразлагающие, олигонитрофилы.

Key words: meadow-alluvial soils of the Aral Sea region, microorganisms, ammonifiers, phosphorus-lowering, oligonitrophils.

Tuproqlarning mikrobiologik faolligini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar hozirgi kunda juda muhim ahamiyatga ega hisoblanib, bunda tuproq hosil bo‘lishida tabiiy va antropogen omillarga katta e‘tibor qaratiladi va shunga bog‘liq holatda undan foydalanish davomida tuproqqa ta’sir ko‘rsatuvchi vositalarning murakkablashishi va kuchayishi nazarda tutiladi.

Mikrobiologik jarayonlarga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik omillardan biri tuproqlarning sho‘rlanishi hisoblanadi. Tarkibida ortiqcha miqdorda sho‘rlanish kuzatiluvchi tuproqlarning mikrobiologik faolligi doimiy ravishda tadqiqotchilar e‘tiborini o‘ziga jalb qilib kelgan. O‘z navbatida sho‘rlangan tuproqlar sharoitida mikrobiologik va biokimyoviy jarayonlar sho‘rlanmagan tuproqlarga nisbatan sust amalga oshishi qayd qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 44892,4 ming gektarni tashkil etib, qishloq xo‘jaliklariga birlashtirilgan berilgan yerlarning umumiy maydoni 20761,6 ming gektarni yoki respublika yer fondining 46,2 foizini, shu jumladan sug‘oriladigan yerlar 3694,8 ming gektarni yoki umumiy yer maydonlarining 9,7 foizini tashkil qiladi. Shundan, jami sug‘oriladigan yerlarning 47 foizi turli darajada sho‘rlangan [7].

Kuznetsova [11] va Qodirova [8] kabi tadqiqotchilar ishlarida keltirilishicha, sho‘rlanish tuproq biologik faolligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi, shuningdek biologik jarayonlar jadalligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd qilingan. Sho‘rlanishning tuproq biologik faolligiga ta’siri sho‘rlanish xususiyatlari va darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu holat bevosita alohida mikroorganizmlar guruhlariga va

fermentlar faolligiga nisbatan turli xilda ta'sir qilishi qayd qilingan.

Ma'lumki, unumdorlikni chuqur anglash asoslarini ishlab chiqishda biologik omillarga katta e'tibor qaratiladi. Tuproqlarning unumdorligi ortishida tuproq muhitida uzluksiz tarzda amalga oshuvchi mikrobiologik va biokimyoviy jarayonlar muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonlar tuproq mikroorganizmlari, mikrofauna va yuksak o'simliklar tomonidan ishlab chiqariluvchi turli xil ko'p sonli fermentlar orqali amalga oshiriladi. Ularning faoliyati natijasida murakkab organik moddalarning o'zgarishlari amalga oshib, o'simliklar o'zlashtirishi uchun qulay shaklga o'tkaziladi, shuningdek o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun talab qilinuvchi yangi yuqori molekulyar birikmalar sintezlanadi [9,10].

Tuproq mikroorganizmlarining asosiy massasi (90-99% gacha) tuproqning qattiq fazasi bilan bog'liq, faqat ularning kichik ulushi tuproq eritmasida topiladi. Bu tuproq qattiq zarrachalarining mikroorganizmlar hujayrasini ushlab turish, va'ni adsorbsiyalash qobiliyati bilan bog'liq. Olimlar tomonidan tuproqda kichik mexanik zarrachalar (il va mayda chang) mikroorganizmlarni eng faol yutishi (adsorbsiyalashi) isbotlangan. Shuning uchun tuproqda ushbu mayda zarrachalar ko'p bo'lsa, ular mikroskopik mavjudotlarni shuncha kuchli adsorbsiyalaydi [6].

1-jadval. Nukus massivi sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining mikroorganizmlar miqdori

Qatlam chuqurligi, sm	Ammonifikatorlar 1 g tuproqda/ming dona			Fosfor parchalovchi 1 g tuproqda/ming dona			Oligonitrofillar 1 g tuproqda/ming dona		
	bahor	yoz	kuz	bahor	yoz	kuz	bahor	yoz	kuz
5-kesma o'tloqi-allyuvial tuproq, o'rtacha sho'rlangan									
0-30	1059	883	943	79	53	62	57	28	34
30-50	689	595	646	24	11	15	18	8	12
50-70	212	143	158	12	6	9	9	3	5
8-kesma o'tloqi-allyuvial tuproq, kuchsiz sho'rlangan									
0-30	1218	1057	1086	96	75	82	73	42	51
30-50	735	616	679	43	27	32	26	11	15
50-70	241	169	195	24	16	21	18	9	11
13-kesma o'tloqi-allyuvial tuproq, kuchli sho'rlangan									
0-30	775	686	718	51	24	35	31	14	20
30-50	296	182	228	14	8	11	12	5	7
50-70	114	63	81	-	-	-	-	-	-
15-kesma o'tloqi-allyuvial tuproq, juda kuchli sho'rlangan									
0-30	568	423	472	35	18	23	21	11	14
30-50	124	96	113	9	3	6	8	2	5
50-70	54	28	36	-	-	-	-	-	-
20-kesma o'tloqi-allyuvial tuproq, sho'rlanmagan									
0-30	1324	1127	1205	125	98	106	91	66	78
30-50	862	578	712	56	35	41	34	19	23
50-70	328	195	213	16	8	11	26	14	18

Tadqiqotlardan olingan natijalarda sho'rlanmagan tuproqlarda mikroorganizmlar miqdori yuqori ekanligi aniqlandi. Sho'rlanish miqdori ortgan sari ammonifikatorlar miqdori kamayib borishi namoyon bo'ldi. Ammonifikatorlar miqdori sho'rlanmagan hamda kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda bahor oyida 241-1324 ming dona, yoz davrida 169-1127 ming dona bo'lsa, kuzda bu ko'rsatkich 195-1205 ming donani tashkil etdi. O'rtacha darajada sho'rlangan tuproqlarda bo'lsa, bahorda 212-1059 ming dona, yozda 143-883 ming dona hamda kuz faslida 158-943 ming dona ekanligi aniqlandi. Eng kam miqdorlari kuchli va juda kuchli sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlarda bahorda 54-775 ming dona, yozgi davrda 28-686 ming dona, kuzgi davrda 36-718 ming donani tashkil etib, fosfor parchalovchi va oligonitrofillar ham sho'rlanmagan, kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda eng yuqori ko'rsatkichlar bahor davrida 16-125 ming dona hamda 18-

Bakteriavalor – tuproqda eng ko'p tarqalgan mikroorganizmlar guruhiga kiradi. Ularning soni gidrotermik sharoitlarga ko'ra 1 g tuproqda o'nlab, yuzlab, milliondan milliardgacha etadi.

Tuproq unumdorligini oshishida va tuproq hosil bo'lish jarayonlarida ishtirok etuvchi mikroorganizmlarning ammonifikator guruhlari katta rol o'ynaydi. Bunda, avniqsa, o'simliklarning o'sishi va tuproq unumdorligini oshishi uchun zarur bo'lgan oziqa moddalarining hosil bo'lish jarayonlari muhim hisoblanadi [12,13].

O'tkazilgan tairibalardan ma'lum bo'ldiki, gumus miqdoriga, tuproqning kimyoviy, fizikaviy xossaxususatlariga, sho'rlanish darajalariga, fermentativ faolligi va mikroorganizmlar miqdori tuproqning reliefi, iqlimi, o'simliklar qoplamiga qarab o'zgarib borishi kuzatildi [1,2,3,4,5].

Olib borilgan tadqiqotlarimizda mikroorganizmlardan ammonifikatorlar miqdori jihatdan ancha ustun ekanligi aniqlandi. Ammonifikatorlar odatda tuproqdagi organik moddalarni o'simlik oziqlanadigan holatga o'tkazib berishda xizmat qiladi va'ni o'simlik o'zlashtirib olishi uchun organik moddalarni to'liq va tez parchalanishi ularning miqdoriga bog'liq holda bu jarayonlar amalga oshadi va o'simlik oziqa moddalari bilan yaxshi ta'minlanishiga yordam beradi.

1-jadval. Nukus massivi sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining mikroorganizmlar miqdori

91 ming donani tashkil etib, ularning juda kam miqdorlari kuchli va juda kuchli sho'rlangan tuproqlarda aniqlanib, fosfor parchalovchi mikroorganizmlar miqdori 3-51 ming dona bo'lsa, oligonitrofillar 2-31 ming donagacha aniqlanib pastki qatlamlarda har ikki mikroorganizmlar uchramaganligi aniqlandi.

Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, qonuniyat bo'yicha barcha mikroorganizmlar miqdori yuqori qatlamda pastki qatlamlarga qarab o'zgarib borishi hamda 50-70 qatlam chuqurligida ko'pchilik mikroorganizmlar miqdori kamayib borishi va avrim mikroorganizmlar uchramasliklari mumkinligi aniqlandi. Tuproq mikroorganizmlarining hayot faoliyati va faolligi tuproq sharoitlari bilan bevosita bog'liq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mikroorganizmlar tuproqdagi barcha jarayonlarda ishtirok etadi, buning natijasida tuproqda yetarli oziqa moddalar hosil bo'ladi, o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi ortadi.

Adabiyotlar

1. Shamuratova G.M. Irrigated meadow-alluvial soils of the Aral sea region and their mechanical composition (in the example of Nukus district) European journal of interdisciplinary research and development ISSN (E): 2720-5746 SJIF 2023: 5.774. 441-443-b.
2. Shamuratova G.M. Orolbo'yi tuproqlarining sho'rlanganlik holati (Nukus tumani misolida) INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION ISSN 2181-371X SJIF 2023:5.305. 580-586-b.
3. Shamuratova G.M. Orolbo'yi o'tloqi-allyuvial tuproqlarning fermentlar faolligining yil mavsumlari bo'yicha o'zgarish dinamika-

si JOURNAL OF IQRO – ЖУРНАЛ ИҚРО – IQRO JURNALI – volume 9, issue 2, 2024 ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) 7,245, SJIF – 5,431 www.wordlyknowledge.uz ILMIY METODIK JURNAL. 554-558-b.

4. Shamuratova G.M. Sugʻoriladigan oʻtloqi-allyuvial tuproq tarkibidagi mikroorganizmlar miqdoriga biopreparatlarning taʼsiri JOURNAL OF INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH ISSN:2181-3558 “SCIENCE AND RESEARCH” SJIF 2023:5.966. 29-31-b.

5. Gafurova L.A., Shamuratova G.M. Morphogenetic and physical properties of grassland-alluvial soils along the Aral //Asian Journal of Multidimensional Research. 2021. T. 10. №. 12.– C. 695-699.

6. Gafurova L.A., Kadirova D.A. Complex genetic research of soils of Surkhandarya valley with microbiological and biochemical study. The European Science Review. – Vienna, Austria, 2018. №5-6. - P. 258-260.

7. Qoʻziyev R.Q., Abduraxmonov N.Yu. va boshqalar. Qoraqalpogʻiston Respublikasi tuproqlaridagi asosiy degradatsiya jarayonlari va ularni oldini olish boʻyicha tavsiyalar // Tavsiyalar. –Toshkent: 2018. 35-b.

8. Qodirova D.A. Surxon-Sherobod vodiysi degradatsiyaga uchragan tuprokdarining xrlati va makon-zamonda uzgarishining biodiagnostikasi. Biol.fan.dokt diss.avtoref. –Toshkent: 2019. 55-b.

9. Александрова Л.Н. Органическое вещество почвы и процессы его трансформации. – Ленинград: 1980. –С. 288.

10. Бабьева И.П., Зенова Г.М. Биология почв. - М.: МГУ, 1989. –С. 336.

11. Кузнецова Ю.С., Казеев К.Ш. Влияние засоления на биологические свойства гидроморфных почв ильменей Астраханской области. // Известия вузов. Северо-Кавказский регион. Естественные науки. 2010. №1. -С. 90-93.

12. Хаджиев Т.Х., Князева Е.В., Касымова С. Микрофлора почв южной части Хорезмского оазиса. Сборник докладов и тезисов III съезда почвоведов и агрохимиков. 5 декабря. –Ташкент: 2000, -С. 151-153.

13. Хазиев Ф.Х. Методы почвенной энзимологии. –М.: «Найка». 2005. –С. 252.

REZYUME. Maqolada Orolboʻyi oʻtloqi-allyuvial tuproqlarning mikroorganizmlar tarqalishining yil mavsumlari hamda shoʻrlanish darajalariga koʻra oʻzgarish dinamikasi oʻrganilgan. Bunda Nukus massivining har darajadagi shoʻrlangan tuproqlarning mikroorganizmlar tarqalishini yil mavsumlari boʻyicha tuproq namunalari olinib analiz qilingan. Analiz natijalariga koʻra shoʻrlanish darajalari ortgan sari mikroorganizmlar miqdori kamayib borishi aniqlandi. Mikroorganizmlar tuproqning yuqori qatlamlarida koʻproq boʻlishi va fasllarga qarab oʻzgarib turishi aniqlandi.

РЕЗЮМЕ. В статье изучена динамика изменения распространения микроорганизмов лугово-аллювиальных почв Приаралья в зависимости от сезонов года и степени засоления. При этом были взяты почвенные пробы и проанализировано распространение микроорганизмов в почвах Нукусского массива с различной степенью засоления по сезонам года. По результатам анализа установлено, что количество микроорганизмов уменьшается с увеличением уровня засоления. Установлено, что микроорганизмы преобладают в верхних слоях почвы и меняются в зависимости от времени года.

SUMMARY. The article examines the dynamics of changes in the distribution of microorganisms in meadow-alluvial soils of the Aral Sea region depending on the seasons and the degree of salinity. In this case, soil samples were taken and analyzed for the seasons of the year, determining the distribution of microorganisms in the soils of the Nukus massif with different degrees of salinity. Analysis results showed that as the salinity level increases, the number of microorganisms decreases. It has been established that microorganisms are more common in the upper layers of the soil and vary depending on the season.

Geografiya

NUKUS SHAHRIGA TABIIY-GEOGRAFIK TAVSIF

N.I.Ametova – *assistent oʻqituvchi*

M.A.Jumanov – *biologiya fanlari doktori, professor*

Ya.I.Ametov – *biologiya fanlari doktori, professor*

Berdaq nomidagi Qoraqalpogʻ davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: Nukus shahri, Amudaryoning oʻng tarafi, Qizilqum choʻli, Amudaryo delʼtasi, sanoat korxonalari, iqlim, havo harorati, yogʻingarchilik miqdori, tuproq, oʻsimlik, qushlar, kaplarlar.

Ключевые слова: город Нукус, правый берег Амударьи, пустыня Кызылкум, дельта Амударьи, промышленные предприятия, климат, температура воздуха, количество осадков, почва, растения, птица, голуби.

Key words: Nukus city, right bank of the Amu Darya, Kyzylkum desert, Amu Darya delta, industrial enterprises, climate, air temperature, precipitation, soil, plants, birds, pigeons.

Nukus shahri Qoraqalpogʻiston Respublika hududining markaziy qismida, Amudaryoning oʻng tarafida, dengiz sathidan 109 metr balandlikda joylashgan. Geografik jihatdan Nukus shahri janubiy va janubi sharqdan Oʻzbekistondagi katta choʻl - Qizilqum choʻli, gʻarbiy tomoni Amudaryo daryosi, shimoliy tomoni boʻlsa Amudaryo delʼtasi bilan tutashgan. 1932-yildan boshlab Qoraqalpogʻiston Respublikasining poytaxti sanaladi. Shaharning maydoni 200 km², xalqining soni 2024-yil 1 yanvar holatiga 339200 odamni (2023 yili-334600; 2022-yili-329000; 2021-yili- 323800; 2019 yili-316300; 1959-yili-39000; 1939-yili-10000) tashkil etadi.

Hozirgi Nukus shahrining oʻrnida XIX-asrning 60-yillarida kichkina Nukus qishlogʻi boʻlgan. 1870-yildan boshlab Nukusda soʻvda-sotiq ishlari, hunarmandchilik, baliq ovlash biron rivojlangan. Amudaryoning suv rejimini nazorat qilib turuvchi gidrologik post qurildi. 1877-yili rus-tuzem maktabi ochildi. XX-asrning boshlarida Nukus qishlogʻi Amudaryoning oʻng tarafidagi eng yirik aholi punktlarining biriga aylandi. 1930-yili 12-noyabrda Qoraqalpogʻiston Avtonom Respublikasining markazini Toʻrtkul shahridan Nukus qishlogʻiga koʻchirish haqida qaror qabul qilindi. 1932-yildan boshlab Nukusda yangi maʼmuriy imoratlar qurilishi boshlandi. 1939-yili Respublika administratsiyasi Nukus shahriga koʻchib oʻtdi.

Shahar 1936-yili bosh plan asosida qurila boshlagan.

1965-yili yangi bosh plan boʻyicha qurila boshladi. Nukus shahri har xil oʻsimliklar bilan koʻkalamzorlashtirilgan togʻri toʻrtburchakli kichik tumanlarga boʻlingan.

Shaharning yirik avtomagistralar qoʻshilishgan yerida joylashganligi unda koʻp tarmoqli sanoatning tez rivojlanishiga sabab boʻldi. Respublika sanoati umumiy mahsulotlarining 20 % ini Nukus shahri sanoat korxonalari beradi. Shaharda 50 dan ziyod sanoat korxonalari bor. Metalsozlik, qurilish materiallari, oziq-ovqat, yengil, yogʻochsozlik va poligrafiya sanoati tarmoqlari bor. Nukusda qurilish materiallari sanoati yaxshi rivojlangan, yirik panelli uysozlik va silikat-beton zavodlari, qurilish materiallari kombinatlari, gʻisht, kabel zavodlari, mramor ishlab chiqarish boʻyicha Qoraqalpogʻ-Italiya qoʻshma korxonasi, non, goʻsht, sut-moy, vino-arok, pivo-limonad zavodlari, bozorlar ishlab turibdi.

Nukus shahrining iqlimi Qoraqalpogʻistonning boshqa hududlari singari keskin kontinental [5]. Qish oylarida harorat keskin pasayib, yoz oylarida boʻlsa harorat birdan koʻtarilib ketadi. Shuningdek, yil davomida muntazam esib turadigan shamollar ham shaharning asosiy iqlim koʻrsatkishlaridan biri sanaladi.

Shaharning iqlimini tavsiflashda Nukus gidrometeorologiya stantsiyasi (2010-2023) maʼlumotlaridan foydalanildi. Ushbu maʼlumotlar asosida shahar iqlimining keskin kontinentalligi, haroratning sutka